



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**MUHOFAZAGA MOLIK KUNDUZGI YIRTQICH QUSHLAR
(FALCINIFORMES)**

O‘ralova Ulbozor Abdirasul qizi-talaba

Jizzax davlat pedagogika instituti.

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kunduzgi yitqich qushlar turkumiga oid turlarning yashash tarsi va ularni muhofaza qilish choralari haqida ma’lumot berilgan, 2009- yilda nashr qilingan Qizili kitobda bu turkumning turlari 19 tani tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: *Falciniformes*, *Haliaeetus albicilla*, *Gypaetus barbatus*, *Aegypius monachus*, *Hieraetus fasciatus*, *Aquila rapax Temminck*, *Gyps fulvus Hablizi*, Maqom, 2009- yilgi nashr, “Zaif”, “Zaifga yaqin”.

Tabiat bizga in‘om etgan barcha ne‘matlar biz uchun qadrli hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish inson oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, bizning qanotli do‘stlarimiz bo‘lgan qushlar ham biz uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Qushlardan biz turli maqsadlarda foydalanamiz. Masalan: zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashishda, par va patlari, go‘shiti, tuxumidan sanoatda va oziq ovqatda. Lekin so‘nggi vaqtlardan qushlarni ko‘p miqdorda ovlash, ulardan oqilona foydalanmaslik oqibatida ko‘pchilik qushlar turi kamayib bormoqda, hattoki ba‘zilari yo‘qolish arafasida ham hisoblanadi. Jumladan *Falciniformes* turkumining ba‘zi turlari ham soni kamayib borganligi, yo‘qolib ketish arafasida bo‘lganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Qizil kitobga kiritilgan turlar (kenja turlar)ni tabiatda yo‘q bo‘lib ketish xavfi bo‘yicha baholashning quyidagi toifalarni o‘z ichiga oladi:

Maqom 0. Yo‘q bo‘lib ketgan turlar. “Mamlakatda yo‘q bo‘lib ketgan” – yoki “Mamlakat yovvoyi tabiatida yo‘q bo‘lib ketgan” deb belgilanishi mumkin.

Maqom 1. Xavfli holatdagi turlar. “Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi” yoki “Yo‘q bo‘lib ketayotgan” deb baholanadi.

Maqom 2. “Zaif”. Turning hayotiy parametrlari yashab qolish uchun tahdid poyonidan uncha uzoq bo‘lmasa (yoki unga noaniq davr mobaynida o‘rtacha ehtimollik bilan yaqinlashib qolsa) vas hu bois uning yovvoyi tabiatda yo‘q bo‘lib ketish xavfi o‘rtacha darajada bo‘lsa.

Maqom 3. “Yo‘q bo‘lib ketish ehtimoliga yaqin”. Turning hayotiy parametrlari yashab qolish uchun tahdid poyoniga nisbatan uzoq bo‘lsada, ammo noaniq davr mobaynida uning shu darajaga yetish ehtimoli mavjud bo‘lgan tur.

T/r	Tur	Maqomi	Tarqalishi	Soni
1	<i>Haliaeetus albicilla</i>	2 (VU:R); [LR-nt]	Janubiy Orolbo'yi (uyalash), baland tog'lar va farg'ona vodiysidan tashqari deyarli barcha hududlarda – qishlash va uchib o'tish.	300-400 ga yaqin.
2	<i>Gypaetus barbatus</i>	2 (VU:R)	G'arbiy Tyonshon, G'arbiy Pomir-Oloy (uyalash), Qizilqum cho'li (ko'chish).	200 taga yaqin.
3	<i>Aegyptius monachus</i>	3 (NT); [LR-nt]	G'arbiy Tyonshon, G'arbiy Pomir-Oloy, bo'kantov, tomdivov qoldiq tog'lari.	75-80
4	<i>Aquila rapax</i> <i>Temminck</i>	3 (NT)	Ustyurt yassi tekisligi (uyalash, uchib o'tish, ko'chish), tekisliklar va past tog'li hududlar (ko'chish, uchib o'tish, qishlash).	Yuzga yaqin.
5	<i>Hieraaetus fasciatus</i>	1 (CR)	Qizilqum (ko'chish, o'tmishda uyalash), Hisor, Nurota, Oloy t., Zarafshon d. qayiri, Toshkent sh. Atroflari (ilgari uyalagan, kochib o'tgan bo'lishi mumkin).	4 ta (1980-1990)

Yuqoridagi jadvalda nomlari keltirilgan qushlar antropogen omillarning ta'siri tufayli hozirda ular sonining kamayishi va turli toifadagi maqomlarga tushib qolganini ko'rishimiz mumkin.

Haliaeetus albicilla – hozirda Orol havzasida suv rejimining o'zgarishi oqibatida yashash joylarining yo'qotilishi, brakonerlik tufayli 2(VU:R) maqomga kiritilgan.


Gypaetus barbatus – yovvoyi tuyoqlilar sonining kamayib ketishi natijasida hozirda local tarqalgan tur hisoblanadi.

Aegypius monachus- yovvoyi tuyoqlilar sonining kamayib ketishi va brakonerlik natijasida 3(NT) maqomga ega, mozaik tarqalgan tur hisoblanadi.


Aquila rapax Temminck- qo'riq yerlarining o'zlashtirilishi oqibatida, ko'pchiligi esa elektr uzatish tizmalarida nobud bo'ladi.

Hieraaetus fasciatus- qo'riq yerlarining o'zlashtirilishi va afsuski ko'pchiligi inson tomonidan taqib qilinishi oqibatida 1(CR) maqomdagi ya'ni butunlay yo'q bo'lib ketish arafasidagi turlar ro'yxatiga kiritilgan.

Qushlar tarqalgan hududlarni xaritalar orqali ham ko'rishimiz mumkin.




Gyps fulvus Hablizi - g'arbiy Tyonshon, g'arbiy Pomir-Oloy (uyalash); ko'chib yurishi- deyarli barcha joylarda.



Aegypius monachus – g'arbiy Tyonshon, g'arbiy Pomir-Oloy, Bo'kantov, Tomditov qoldiq tog'lari.

Shartli belgilar:

- Hozirgi yashash joylari.
- O'tmishdagi yashash joylari.
- Qushlarning uyalashsiz uchraydigan joylari.



Yuqoridagi diagrammada Qizil kitobga kiritilgan *Falconiformes* turkumi vakillarini maqomi bo'yicha ko'rsatilgan. Jami 19 tur vakillaridan 2 tasi 1- maqomga, 11 tasi 2-maqomga, 6 tasi 3-maqomga tegishli hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, agar insonlar qushlardan oqilona foydalanishmasa Qizil kitobga kiritilgan qushlar soni tobora ortib boraveradi. Bunday salbiy oqibatlar yuzaga kelishining oldini olish uchun ularning muhofazasi uchun bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqish lozim. Masalan:

- turi kamayib borayotgan qushlarni ovlashni ta'qiqlash;
- ular tarqalgan hududlarni muhofaza ostiga olish;
- milliy bog'lar, qo'riqxonalarda saqlash.
- yangi yerlarni o'zlashtirishdan oldin u hududning faunasini o'rganish.
- ularning turini ko'paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: II jild. Hayvonot olami. “Chinor ENK”. Toshkent – 2009
2. J. L. Laxanov. Umurtqalilar zoologiyasi. “O'AJBNT” Markazi. Toshkent – 2005.
3. S. Dadayev, K. Saparov. Umurtqalilar zoologiyasi. “Turon – Iqbol” nashriyoti, Toshkent – 2019.
4. Beyko Vasilij Borisovich, Berezina Marina Feliksovna, Bogatiryova Yelena Lvovna va boshqalar. Hayvonot olamining katta ensiklopediyasi. “Davr nashriyoti”. Toshkent- 2013.
5. O. Mavlonov. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent – 2006.